



SOLVING INVESTMENT DISPUTES AND PREVENTING THEIR OCCUPATION: FOREIGN EXPERIENCE

Akhmadova Saida Safarali kizi ¹

¹ Master of Tashkent State Law University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4744874>

ARTICLE INFO

Received: 1st May 2021
Accepted: 5th May 2021
Online: 10th May 2021

KEY WORDS

investment dispute,
alternative dispute
resolution methods,
arbitration, arbitration
courts, Singapore
International Mediation
Centre.

ABSTRACT

This article presents the experience of foreign countries in resolving investment disputes: Singapore and the United Arab Emirates, as well as the Peruvian state in preventing the occurrence of investment disputes, and analyzes possible aspects of their implementation in national legislation

INVESTITSYAVIY NIZOLARNI HAL QILISH VA ULAR VUJUDGA KELISHINI OLDINI OLISH: XORIY TAJRIBASI

Axmadova Saida Safarali qizi ¹

¹ Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 1-May 2021
Ma'qullandi: 5-May 2021
Chop etildi: 10-May 2021

KALIT SO'ZLAR

investitsiyaga oid nizo,
nizolarni hal qilishning
muqobil usullari, arbitraj,
hakamlik sudlari, Singapur
Xalqaro Mediatsiya
markazi (Singapore
International Mediation
Centre), ProInversión.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada investitsiyaga oid nizolarni hal qilish bo'yicha xorijiy mamlakatlar: Singapur va Birlashgan Arab Amirliklarining, shuningdek, investitsiyaga oid nizolarni vujudga kelishini oldini olish borasidagi Peru davlatining tajribasi bayon etilgan, ularning milliy qonunchilikka joriy etish mumkin bo'lgan jihatlari tahlil etilgan.

Xalqaro investitsion nizolar katta mablag'larni talab qiluvchi va uzoq muddatli arbitrajga olib kelishi mumkin va uning natijasini oldindan aytib bo'lmaydi. Bunday

nizolar davlatlar va investorlarning nufuzi uchun xavf tug'diradi va o'zaro manfaatli munosabatlarni buzishi mumkin.



Shu sababli investitsiyaviy nizolarning sonini kamaytirish, ularni ko'rib chiqishning sinalgan samarali mexanizmini joriy etish, shuningdek, investitsiyaga oid nizolarni vujudga kelishini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Bunda sohadagi rivojlangan davlatlarning tajribasini o'rganish va ularning yutuqli jihatlarini milliy qonunchilikka joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Singapur. 2010-yilda Londonning Queen Mary universitetida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, Singapur so'nggi o'n yil ichida Osiyoda xalqaro tijorat arbitraj uchun eng afzal joy sifatida e'tirof etildi.

Singapur Sharq va G'arb o'rtasidagi darvoza vazifasini bajaradigan mintaqaviy va moliyaviy markazdir. Bugungi kunda ko'plab ko'p millatli kompaniyalarning mintaqaviy markazi hisoblanadi. Jahon bankining biznes yuritish qulayligi indeksida birinchi o'rinni egallaydi; jahon korrupsion in'ikoslar indeksida beshinchi o'rinni; jahon iqtisodiy forumining zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha Global axborot texnologiyalari bo'yicha hisobotida ikkinchi o'rinni egalladi [1].

Singapur xalqaro arbitrajning ochiq rejimini qabul qildi, barcha yurisdiksiyalardan kelgan advokatlariga hakamlik muhokamasida erkin ishtirok etish imkonini berdi. Singapurda hakamlik sudi sudyalari soliq imtiyozlaridan foydalanadilar.

Singapurda investitsiyaviy nizolarni hal qilishning ahamiyatli jihati shundaki, nizolarni hal qilishning muqobil usullari, xususan, mediatsiya instituti muhim o'rin egallaydi.

Singapur Xalqaro Mediatsiya markazi (Singapore International Mediation Centre) – Osiyoda biznes yuritishning o'zgaruvchan talablariga moslashuvchan, nizolarni hal qilish bo'yicha professional xizmatlarni taklif

etuvchi tijorat tashkilotidir. Markazda 70dan ortiq transchegaraviy nizolarni hal qilish sohasida katta tajribaga ega xalqaro mustaqil mediator faoliyat ko'rsatadi.

2017-yil 1-noyabrdan boshlab Markaz Singapur adliya vaziri tomonidan Mediatsiya to'g'risidagi aktga ko'ra, ahamiyatli mediatsiya xizmatlarini taqdim etuvchi sifatida belgilandi.

2021-yil 26-mart kuni Singapur Xalqaro Mediatsiya markazi va Investitsiyaviy nizolarni hal qilish bo'yicha Xalqaro markaz o'rtasida bitim imzolandi. Shartnoma ICSID shafeligida amalga oshiriladigan vositachilik tartib-qoidalari uchun Markaz vositalari va xizmatlaridan foydalanishni, shuningdek, ikki markaz o'rtasida texnik hamkorlikni kengaytirishni nazarda tutadi[2].

Birlashgan Arab Amirliklari.

Birlashgan Arab Amirliklarining 2018-yilda kuchga kirgan To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi yangi qonunining 12-moddasida nizolarni hal qilish mexanizmi yoritilgan bo'lib, unga ko'ra, "Chet el investitsiyalari loyihalaridan kelib chiqadigan tortishuvlar, nizolar har qanday ADR tomonidan hal qilinishi mumkin"[3].

Ushbu qoidaga ko'ra investorning har qanday da'volari BAAning vakolatli sudida tezlashtirilgan tartibda ko'rib chiqilishi mumkin.

Xorijiy investorlarda shuningdek, mahalliy sudlarga murojaat qilish huquqi bo'lib, unga ko'ra, agar investor nizoni ko'rishni mahalliy sudlarda davom ettirishni xohlasa, bu jarayon zudlik bilan amalga oshiriladi.

Biroq, qonun tezlashtirilgan tartib qanday amalga oshirilishiga izoh bermaydi. Bugungi kunda BAA sudlarida maxsus sudlar yoki investitsiya bilan bog'liq ishlarni tezlashtirilgan tartibda ko'rish protsedurasi mavjud emas.



Peru. 2006-yilda qabul qilingan 28933-sonli Qonunning 2-moddasida quyidagilar belgilandi:

1. Davlat sektorini optimizatsiyalash va investitsiyaviy nizolarga reaksiya bildirish, investitsiyaviy nizolar bo'yicha maxsus komissiya tuzish.
2. Investitsiyaviy nizolarni hal qilish nazarda tutilgan shartnomalar to'g'risidagi bitimlarning markazlashtirilgan bazasini yaratish.
3. Investitsiyaviy nizolarni vujudga kelishi to'g'risida ogohlantiruvchi tizimni joriy etish.
4. Nizolarda ishtirok etuvchi davlat organlarining koordinatsiya protsedurasini belgilash.
5. Investitsiyaviy nizolarni hal qilish tartibi nazarda tutilgan investitsiya shartnomalarini standartlashtirish.

ProInversión-Peruda bevosita investorlar bilan muloqotga kiruvchi agentlik bo'lib, SC doimiy a'zosi sifatida investorlar oldida turgan muammolar haqida tegishli ma'lumot beradi. Chet ellik sarmoyadorlar bilan doimiy aloqa kanallari hukumatlar investitsion to'siqlarni va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlashga imkon beradigan so'rovlar, uchrashuvlar yoki boshqa o'zaro ta'sirlar foydali hisoblanadi. Ushbu tizim investitsiyaviy nizoning vujudga kelishi haqida xabar beruvchi signal vazifasini ham bajaradi.

Yuqorida keltirilgan tajribalarning ayrim jihatlarini milliy qonunchilikka joriy etish – investitsiyaga oid nizolarni ko'rib chiqish mexanizmini takomillashtirishga yordam beradi.

Birinchiidan, investitsiyaga oid nizolarni ko'rib chiqish jarayoni uchun BAA'dagi kabi maxsus tartib belgilash. Ma'lumki, investitsiyaga oid nizolarni ko'rib chiqish jarayoni yuqori mablag' sarflanishiga sabab bo'ladi. Bunda har bir kun uchun penya, advokat gonorari hisoblanadi, shuningdek, nizoni hal qilish jarayonining uzoqqa cho'zilishi ko'rilgan moddiy zararining oshishiga sabab bo'ladi. Nizolarni tezlashtirilgan maxsus tartibda ko'rib chiqilishi shu kabi mablag'lar va vaqtning tejallishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchiidan, investitsiyaga oid nizolarni hal qilishda nizolarni hal qilishning muqobil usullari, xususan mediatsiya institutidan kengroq foydalanish. Yuqorida keltirilganidek, Singapurda Mediatsiya markazi nizolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi va bu o'zining ijobiy natijasini berib kelmoqda.

Uchinchiidan, investitsiyaga oid nizolarni oldini olishga qaratilgan mexanizm ishlab chiqish. Bunda investitsiya bitimlari va nizolar to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlagan platforma yaratish, bevosita investorlar bilan muloqotga kiruvchi agentlikni tashkil etish va bu agentlikka investitsiyaga oid nizolarni vujudga kelish ehtimoli to'g'risida signal berish vazifasini yuklash maqsadga muvofiq.

To'rtinchiidan, ikki tomonlama investitsiya shartnomalarida investitsiyaga oid nizolarni hal qilish haqidagi qoidalarni standartlashtirish, ya'ni bir xil qoidalarni belgilash lozim. Chunki aks holda, bu boshqa davlatlar tomonidan "eng qulay sharoitlar rejimi" (most-favored nation)ning buzilishi sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vivekananda N, Jagdish John Menezes. Singapore as a seat for investor-state disputes. Maxwell Road #02-01 Singapore 069115 T: (65) 6221 8833 F: (65) 6224 1882 E: publications@siac.org.sg
2. <https://icsid.worldbank.org/news-and-events/news-releases/simc-icsid-conclude-cooperation-agreement>
3. <https://www.mondaq.com/inward-foreign-investment/840754/dispute-resolution-under-the-new-uae-fdi-law>